

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investition marketingni rivojlantirish asosida mintqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakllantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari	135
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modelashtirish	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili	149
Talipova Dilfuza Nabiyeвна	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoirazimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari	223
Akramova Nargiza Axrorovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimliklarni baholashni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibril bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari.....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	373
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoiraz Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellectual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскарлов Бахтиер Аскарлович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlarini.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами	469
Хайдарова Малика Шокирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlarini	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi	504
Avazov Ilxom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	513
Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari	550
Umarova Hulkar Umidulloyevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
“Зелёная экономика” как фактор повышения экономического роста страны	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari.....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiyev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi.....	686
Urunbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar.....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov	



Xalqaro migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений.....	714
Пирмухамедова Шахноза	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан...	719
Рузиева Нилуфар Тулкин кизи	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	725
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmamadovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri.....	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ASOSIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI

Igitov Jurabek Kuzibekovich

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalar faoliyatini va loyihalarini moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilgan. Xususan, maqolada so'nggi yillarda xalqaro fond bozorlarida sanoat kompaniyalarining listingdan o'tish dinamikasi, fond indekslarida bozor kapitallashuvi bo'yicha kuchli yuzlikka kiruvchi kompaniyalar, bozorga IPO orqali kirib kelgan kompaniyalarning statistik tahlillari keltirilgan. Shuningdek, sanoat kompaniyalarining fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish usullari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: fond birjalari, buyback, korporativ obligatsiyalar, sanoat tarmoqlari, IPO, M&A.

Abstract: This article explores the experiences of foreign countries in financing the activities and projects of enterprises on the basis of corporate securities. In particular, the article presents statistical analysis of the dynamics of the transition from listing of industrial companies in international stock markets in recent years, companies that are in the top hundred on market capitalization in stock indices, companies that have entered the market through an IPO. The methods of attracting investments through the stock market of industrial companies are also covered in detail.

Key words: stock exchanges, buyback, corporate bonds, Industries, IPO, M&A.

Аннотация: В данной статье рассмотрен зарубежный опыт финансирования деятельности и проектов предприятий на основе корпоративных ценных бумаг. В частности, в статье представлена динамика листинга промышленных компаний на международных фондовых рынках за последние годы, компаний, входящих в сотню сильнейших по рыночной капитализации в фондовых индексах, статистический анализ компаний, вышедших на рынок через IPO. Также подробно описаны способы, которыми промышленные компании привлекают инвестиции через фондовый рынок.

Ключевые слова: фондовые биржи, покупка, корпоративные облигации, отрасли, IPO, слияния и поглощения.

KIRISH

Xalqaro moliya bozori shunday kuchli bir makonki uning 0,1 foizga o'zgarishi mamlakatlar iqtisodiyotlarini bir necha foizga o'zgartirib yuborishi mumkin. Bugungi kunda xorijiy fond birjalarida moliyaviy instrumentlarning turlari ko'p bo'lib, ulardan eng asosiylari va ommaboplar korporativ qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Korporativ qimmatli qog'ozlar bugungi dunyo fond bozorining eng muhim moliyaviy instrumentlari bo'lib, kompaniyalar aynan ular orqali katta biznes olamiga kirib borishlari mumkin. Xalqaro moliya bozoridagi eng yirik deb hisoblangan NYSE, NASDAQ, SSE, TSE, LSE kabi fond birjalarida eng ko'p savdolar aynan korporativ qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladi. Nega aynan korporativ qimmatli qog'ozlar dunyo fond birjalarida muhim moliyaviy instrument ekanligiga uning iqtisodiy mohiyatini tushunish orqali yetish mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ qimmatli qog'ozlar faqatgina xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan muomalaga chiqarilgani uchun ularni qimmatli qog'ozlarning emitentga ko'ra turlari ruknida – xo'jalik yurituvchi subyektlar (AJ, MChJ, kompaniya, korporatsiyalar) tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlar turlari hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda korporativ qimmatli qog'ozlarga oid bir qancha nazariy qarashlar mavjud.

Uilyam L. Keri "Federalizm va korporativ huquq: Delaver haqida mulohazalar" (Federalism and Corporate Law: Reflections upon Delaware)¹ nomli ilmiy ishida qimmatli qog'ozlarning korporativ muhitdagi rolini, qimmatli

¹ William L. Cary: "Federalism and Corporate Law: Reflections upon Delaware". Yale Law Journal. Vol. 83, No. 4 (1974), pp. 663-705 (43 pages)



qog'ozlarning korporatsiyalar uchun funktsionalligi va ahamiyati, shuningdek, ularning korxonalarning moliyaviy qarorlariga ta'siri bilan bog'liq mavzularni o'rgangan.

Richard A. Brealey, Stuart C. Myers, Franklin Allenlar "Korporativ moliya tamoyillari" (Principles of Corporate Finance)² nomli kitobida korporativ moliyaga keng nuqtai nazardan, jumladan qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar nuqtai nazaridan yondashadilar. Ular qimmatli qog'ozlardan foydalanish kompaniyalarning moliyaviy strategiyalariga va kapitalni oshirishga qanday ta'sir qilishi mumkinligini muhokama qilishgan.

Ludger Hentschel "Investitsiyalar: Kirish" (Investments: An Introduction)³ nomli ilmiy ishida korporativ moliya va investitsiyalar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilgan hamda korporativ qimmatli qog'ozlarni kompaniyaning investitsiyalarni jalb qilishning eng jozibador usuli sifatida tariflagan.

James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Liptonlarning "Qimmatli qog'ozlarni tartibga solish: keyslar va materiallar" (Securities Regulation: Cases and Materials)⁴ nomli ilmiy ishida korporativ moliyaning asosiy elementlarini, shu jumladan korporativ qimmatli qog'ozlar chuqur muhokama qilingan bo'lib, korporativ moliyaviy kontekstda ulardan foydalanish bilan bog'liq mavzularni tahlil qilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan qimmatli qog'ozlarning alohida turlari, qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy holati, mahalliy fond bozorida so'nggi yillarda amalga oshirilgan yangiliklar, xususan, IPO yoki SPOLar bo'yicha juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, aynan yaxlit iqtisodiy atama sifatida korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha ilmiy ishlar juda kam olib borilgan.

TAHLIL VA MULOHAZA

Xorijiy mamlakatlarning o'tmishi hamda bugungi kunida korporativ qimmatli qog'ozlar moliyaviy bozorlarning eng muhim va ko'p oldi-sotdi bo'ladigan moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. 2020-2023-yillar davomida dunyodagi TOP birjalarning faqatgina aksiyalar bozorida 11 550,0 ta kompaniya listingdan o'tgan (1-jadval). Korporativ obligatsiyalar bozorida aksiyalar bozoriga qaraganda listingdan o'tgan kompaniyalar soni kam bo'lib, dunyoning eng kuchli fond birjalariga kiruvchi faqatgina 3 ta birjada yangi listinglar amalga oshirilgan (2-jadval).

1-jadval: Dunyoning "TOP" fond birjalarida yangi listingdan o'tgan kompaniyalar soni (aksiyalar bozori bo'yicha)⁵

Birjalar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Hong Kong Exchanges and Clearing	154	98	90	73
LSE Group London Stock Exchange	0	138	75	31
Nasdaq - US	288	533	271	276
National Stock Exchange of India	23	155	145	227
NYSE	71	433	119	108
Shanghai Stock Exchange	1420	2015	1970	2122
Shenzhen Stock Exchange	161	232	189	133
Jami:	2117	3604	2859	2970

2-jadval: Dunyoning "TOP" fond birjalarida yangi listingdan o'tgan kompaniyalar soni (korporativ obligatsiyalar bozori bo'yicha)⁶

Birjalar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Hong Kong Exchanges and Clearing	430	508	368	222
National Stock Exchange of India	1418	1102	1114	1177
Shenzhen Stock Exchange	2629	2844	2922	3076
Jami:	4477	4454	4404	4475

Shunday bo'lsada, 3 ta birjaning korporativ obligatsiyalar maydonida listingdan o'tgan kompaniyalar soni dunyoning eng yirik yettita fond birjalarining aksiyalar maydonida listingdan o'tgan kompaniyalar soniga qara-

2 Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. "Principles of Corporate Finance". 12th Edition, 2020.

3 Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008.


4 James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. "Securities Regulation: Cases and Materials". The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition.

5 World Federation of Exchanges (WFE) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Ma'lumotlar 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra olingan. <https://www.world-exchanges.org/our-work/statistics>.

6 World Federation of Exchanges (WFE) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Ma'lumotlar 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra olingan. <https://www.world-exchanges.org/our-work/statistics>.



ganda ko'p ekanligi, korporativ obligatsiyalar investorlar tomonidan ko'proq ma'qullanishi va risklilik darajasi past bo'lgan korporativ qimmatli qog'ozlar ekanligidan dalolat beradi.



1-rasm: Fond birjalarida listingdan o'tgan kompaniyalar soni⁷


Shuningdek, 1-rasm ma'lumolariga ko'ra kompaniyalarning fond bozoriga IPO orqali kirib kelishlari soni so'nggi besh yilda butun dunyoda yuz bergan koronavirus pandemiyasi hamda amaldagi geosiyosiy beqarorlik sharoitida ham sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ichida listingdan o'tgan sanoat korxonalari statistikasi quyidagicha ko'rinishni aks ettirgan (3-jadval):

3-jadval: IPO bo'yicha listingdan o'tgan kompaniyalar soni (tarmoqlar kesimida)⁸

	Listinglar soni (IPO)			Tushum, \$ mlrd.		
	2022	2023	O'zgarish	2022	2023	O'zgarish
Sanoat korxonalari	222	265	19%	30.5	26.5	-13%
Texnologiya	328	264	-20%	37.4	32.2	-14%
Iste'mol tovarlari	187	224	20%	9.8	16.3	66%
Boshqalar	257	293	14%	49.4	21.9	-56%

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib, 2023-yilda 2022-yilga qaraganda dunyo bo'yicha sanoat korxonalarining IPOlari soni ko'p bo'lgan bo'lsada, ular kichik hajmdagi IPOligi sababli kamroq tushum bilan yakunlangan. Shuningdek, jadval ma'lumotlaridan fond birjalarida ko'proq insoniyatning shaxsiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan kundalik zarur mahsulotlarga ehtiyoj yuqoriligi, dunyodagi geosiyosiy beqarorlik sharoitida ham bu soha eng kam ziyon ko'radigan soha sifatida hisobga olinishi sababli bu tarmoq kompaniyalarining IPOlari soni ham, ulardan tushgan tushum ham sezilarli darajada yirik bo'lgan.

Xorijiy fond bozorlarida sanoat tarmoqlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni keltirish va tahlil qilish uchun avvalo sanoat tarmoqlari haqida ma'lumotni taqdim etishimiz lozim. Xorijiy tajribaga ko'ra sanoat korxonalari quyidagi sektorlar kesimida ko'rib chiqiladi (2-rasm).



2-rasm: Sanoat tarmoqlari tarkibi⁹

⁷ <https://stockanalysis.com/ipos/statistics/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸ EY Global IPO Trends 2023. https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en_gl/topics/ipo/ey-global-ipo-trends-2023-q4.pdf

⁹ Xorijiy adabiyotlar va nashrlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi.




Dunyoning TOP fond birjalarining bozor kapitallashuvi bo'yicha reytinglarida va indekslarida aynan sanoat korxonalari yetakchi kompaniyalar qatorida muntazam o'z o'rinlarini egallab keladi (4-jadval).

4-jadval: TOP Sanoat kompaniyalarining bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyo reytinglaridagi o'ri (2024-yil 1-fevral holatiga)¹⁰

Reytingdagi o'ri	Kompaniya nomi (tikeri)	Bozor kapitallashuvi, \$ mlrd.	Bir aksiyasining bozor qiymati	Joylashgan mamlakati
11	Taiwan Semiconductor Manufacturing Company (TSMC)	690.36	133.11	Tayvan
12	Tesla (TSLA)	616.47	193.57	AQSh
22	Samsung (SSNLF)	370.42	55.63	Janubiy Koreya
29	Toyota (TM)	302.31	224.46	Yaponiya
51	Intel (INTC)	183.11	43.31	AQSh
61	Caterpillar (CAT)	161.46	317.16	AQSh
69	Union Pacific Corporation (UNP)	152.06	249.45	AQSh
70	General Electric Company (GE)	151.58	139.28	AQSh
85	Airbus (AIR.PA)	127.82	162.34	Niderlandiya
86	Boeing (BA)	127.64	209.20	AQSh

Qiziqarli jihati shundaki, dunyo bo'yicha yirik fond birjalarida listingdan o'tgan 690 ta sanoat korxonalarining 2024-yilning 1-yanvar holatiga bozor kapitallashuvi ko'rsatkichi 5,2 \$ trln. bo'lib, 2020-yilning boshidan boshlab bu ko'rsatkich 60 foizga yuqorilagan (3-rasm).



3-rasm: Sanoat kompaniyalari bozor kapitallashuvining o'zgarish tendensiyasi (S&P 500 fond indeksiga nisbatan)¹¹

Xorijiy mamlakatlarda sanoat korxonalari fond bozorlaridan investitsion maydon sifatida foydalanishadi. Aksariyat mamlakatlarda sanoat korxonalari davlat subsidiyalari va yirik kredit liniyalari orqali moliyalashtirilsa, to'g'ri korporativ boshqaruv tamoyillari asosida boshqariladigan kompaniyalar bunday moliyaviy instrumentlarning o'rniga ularning muqobillaridan foydalanishadi. Xo'sh, xorijiy kompaniyalar fond bozorida orqali qanday qilib investitsiyalarni jalb qilishlari mumkin? Bu savolga quyidagi rasm bilan javob beramiz (4-rasm).

¹⁰ <https://companiesmarketcap.com/manufacturing/largest-manufacturing-companies-by-market-cap/sayti> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹¹ <https://finance.yahoo.com/sectors/industrials/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



IPO/SPO

M&A

Buyback

Dividend

4-rasm: Sanoat kompaniyalarining fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish usullari

1. **IPO/SPO.** Birlamchi ommaviy takliflar (IPO) kompaniyalar fond birjalari orqali investorlarni jalb qilishning asosiy usullaridan biridir. Birjaga chiqish orqali kompaniyalar o'zlarining aksiyalarini birinchi marta ommaga taklif qiladilar, bu esa investorlarga kompaniyadagi egalik ulushlarini sotib olish imkonini beradi. Bundan tashqari, kompaniyalar kengaytirish, qarzni to'lash yoki boshqa korporativ maqsadlar uchun kapitalni jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalarni chiqarish yo'li bilan ikkilamchi takliflarni amalga oshirishi mumkin. Misol uchun, 2020-yilning fevral oyida Tesla kompaniyasining IPO si o'tkazilib, unda kompaniya aksiyalarini ommaviy joylashtirish auksion usuli orqali amalga oshirilgan hamda bir dona aksiyasining narxi 767 AQSh dollargacha ko'tarilgan. Bu moliyaviy instrumentni ishlatish orqali kompaniya o'z balansini mustahkamlash, kapital xarajatlarni moliyalashtirish va elektromobillar texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun 2,03 mlrd. AQSh dollari miqdorida qo'shimcha moliyalashtirish manbaiga ega bo'lgan.
2. **Merger&Acquisition.** Birlashish va sotib olish (M&A) - bu qo'shilish, sotib olish, konsolidatsiya, tender takliflari va aktivlarni sotib olish kabi turli operatsiyalar orqali kompaniyalar yoki aktivlarni birlashtirishni o'z ichiga olgan korporativ strategiya. Bu bitimlar odatda bir kompaniya (sotib oluvchi kompaniya yoki xaridor) ikkinchi kompaniyani (maqsadli kompaniya yoki sotuvchi) sotib olishni yoki yangi korxona tashkil qilish uchun boshqa kompaniya bilan birlashishini o'z ichiga oladi. Misol uchun, 2015 yilda Amerikaning General Electric kompaniyasi Alstom Power Business kompaniyasini o'z tarkibiga qo'shib oladi. Kelishuv 10,6 mlrd. AQSh dollariga baholangan bo'lib, unga ko'ra kompaniya o'z barcha aktivlari va majburiyatlari bilan GE tarkibiga o'tkazilgan.¹²
3. **Buyback.** Qayta sotib olish, kompaniya o'zining muomaladagi aksiyalarini ochiq bozordan yoki to'g'ridan-to'g'ri aksiyadorlardan sotib oladigan korporativ harakatdir. Qayta sotib olish dividendlar bilan bir qatorda aksiyadorlarga kapitalni qaytarishning muqobil usuli yoki kompaniyaning kapital tarkibini boshqarish va aksiyadorlar qiymatini oshirish uchun strategik harakati bo'lishi mumkin. Misol uchun, Boeing kompaniyasi 2019-yilda 230 million dona aksiyalarini qayta sotib olishini e'lon qiladi. Qayta sotib olish qiymati jami 9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan hamda aksiyalar qaytarib sotib olingan oyda kompaniya aksiyalarining fond bozorida o'rtacha o'sish miqdori 7 foizdan baland bo'lgan.
4. **Dividendlar.** Kompaniyaning yillik sof foydasidan har bir aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan aksiyadorlar uchun ajratiladigan daromad miqdori. Odatda dividend to'lovlarini muntazam yaxshi amalga oshirib keladigan kompaniyalarning fond bozoridagi mavqei juda baland bo'ladi. Har yili butun dunyo bo'ylab muntazam ravishda o'z investorlariga dividend berib keladigan minglab kompaniyalar mavjud. Ularning dividendlarni muntazam berishidan asosiy maqsadlari mavjud investorlar sodiqligini oshirish va dividend to'lay olish qobiliyatiga ega bo'lgan yaxshi kompaniya sifatida o'zlarini namoyon etishdir.

Bear Stearns fondining qulashi 1930-yillardan beri eng yomon global moliyaviy inqiroz bilan yakunlangan voqealar rivojini boshlab berib, jahon iqtisodiyotini bir necha yilga izdan chiqarib yuborgan. AQShnin Federal Zaxira Tizimi va qator yirik banklari obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarini maksimal darajada pasaytirishga harakat qilishgani insonlarning qo'rquvga tushganligi sababli besamar bo'lgan.

Ko'p yillik past foiz stavkalaridan so'ng, global obligatsiyalar bozorida daromadlilik oshib bormoqda. 2024-yilning boshida dunyoning eng muhim barqaror daromadli ko'rsatkichi - 10 yillik G'aznachilik notasining daromadliliqi qisqa vaqt ichida 5 foizdan oshdi. Bu aniq dumaloq raqam 2007-yil iyul oyidan buyon – "Dunyo moliyaviy inqirozi" falokati boshlanganidan beri buzilmagan psixologik jihatdan qo'rqinchli chegara bo'lgan.¹³

Bugungi kunda xorijiy fond birjalarida obligatsiyalarning bir qancha turlaridan keng foydalanib kelinadi. Jahon obligatsiyalar bozorida so'zsiz eng mashhur obligatsiya bu AQShning g'aznachilik obligatsiyalaridir (Treasury bonds/notes) (5-jadval).

12 <https://www.ge.com/news/press-releases/ge-completes-acquisition-alstom-power-and-grid-businesses> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

13 <https://www.nytimes.com/2023/10/27/business/bond-market-economy-interest-rates.html> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



5-jadval: Xorijiy fond birjalarida eng ommabop obligatsiyalar

Obligatsiya turlari	Mohiyati
G'aznachilik obligatsiyalari	AQSh G'aznachiligi kabi hukumatlar tomonidan chiqarilgan g'aznachilik obligatsiyalari emitent hukumatning to'liq ishonchi va krediti bilan qo'llab-quvvatlanadigan past riskli investitsiyalar hisoblanadi. Ular odatda 10 yildan 30 yilgacha bo'lgan uzoq muddatga ega va yarim yillik foizlar to'lab boriladi
Korporativ obligatsiyalar	Korporatsiyalar tomonidan kapitalni jalb qilish uchun chiqarilgan korporativ obligatsiyalar turli shakllarda bo'ladi, jumladan, investitsiya darajasidagi obligatsiyalar va yuqori daromadli obligatsiyalar. Investitsiya darajasidagi obligatsiyalar yuqori kredit reytingiga ega bo'lgan moliyaviy barqaror kompaniyalar tomonidan chiqariladi, yuqori daromadli obligatsiyalar esa kredit reytingi pastroq va to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan kompaniyalar tomonidan chiqariladi
Konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar	Konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar obligatsiyalar egalarga o'z obligatsiyalarini oldindan belgilangan konvertatsiya narxida emitentning oddiy aktsiyalarining ma'lum miqdordagi aktsiyalariga aylantirish imkoniyatini beradi. Ushbu gibrid qimmatli qog'ozlar investorlarga kapitalning oshirish imkonini, shu bilan birga obligatsiyaning barqaror daromadli xususiyatlari orqali salbiy oqibatlardan himoyani taklif qiladi
Inflyatsiyadan himoyalangan obligatsiyalar	AQSh g'aznachiligining inflyatsiyadan himoyalangan qimmatli qog'ozlari (TIPS) kabi ushbu obligatsiyalar iste'mol narxlarini indeksdagi (CPI) o'zgarishlarga asoslanib, ularning asosiy qiymatini moslashtirish orqali investorlarni inflyatsiyadan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ular inflyatsiya xavfidan himoya qilishni taklif qiladilar, ammo nominal obligatsiyalarga nisbatan pastroq daromadga ega bo'lishi mumkin
Suveren obligatsiyalar	Chet el hukumatlari tomonidan chiqarilgan suveren obligatsiyalar emitent davlatning valyutasida ifodalanadi va emitent hukumat bilan bog'liq kredit riskiga duchor bo'ladi. Ommabop suveren obligatsiyalarga Germaniya (Bunds), Yaponiya (JGBs) va Buyuk Britaniya (Gilts) kabi davlatlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar kiradi

Bundan tashqari, dunyodagi ekologik, siyosiy, iqtisodiy vaziyat yildan yilga chigallashib borayotganligi sababli so'nggi yillarda obligatsiyalar bozorlarida doimiy daromadli investitsiya landshaftini o'zgartirgan bir qancha yangi tendentsiyalar va tajribalar kuzatildi. Ushbu yangi tajribalardan ba'zilar quyidagilardir (5-rasm):

Yangi obligatsiya turlari					
Yashil obligatsiya	Ijtimoiy obligatsiya	DEI obligatsiyasi	COVID-19 ga qarshi kurashish obligatsiyasi	SLB obligatsiyasi	Raqamli obligatsiya

5-rasm: Xorijiy fond bozorlarida paydo bo'lgan yangi obligatsiyalar

XULOSA

Kompaniyalarni moliyalashtirish bo'yicha ilg'or xalqaro amaliyot rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya va strategiyaning o'ta muhim manbai hisoblanadi. Ushbu tajribani o'rganish amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar, innovatsion usullar va muvaffaqiyatli moliyalashtirish modellarini aniqlash imkonini beradi.

Xorijiy tajribadan olingan asosiy xulosalardan biri shundaki, turli xil korporativ moliyaviy vositalar, masalan, aksiyalar, obligatsiyalar, venchur kapitali va boshqalar korxonalarga aniq talablar, maqsadlar va risklarni hisobga olgan holda kapitalni jalb qilishning maqbul yechimlarini topish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ilg'or xalqaro tajribalar ham korporativ moliya tizimining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun shaffoflik, investorlar ishonchi va moliya bozorlarini samarali tartibga solish muhimligini ta'kidlaydi. Bu omillar biznesning barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. William L. Cary: "Federalism and Corporate Law: Reflections upon Delaware". Yale Law Journal. Vol. 83, No. 4 (1974), pp. 663-705 (43 pages).
2. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. "Principles of Corporate Finance". 12th Edition, 2020
3. Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008.
4. James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. "Securities Regulation: Cases and Materials". The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition.
5. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2017). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
6. Ross, S., Westerfield, R., & Jordan, B. (2016). Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
7. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley.
8. Brigham, E., & Ehrhardt, M. (2016). Financial Management: Theory & Practice. Cengage Learning.
9. DeMarzo, P., & Berk, J. (2013). Corporate Finance. Pearson.
10. Myers, S., & Majluf, N. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics, 13(2), 187-221.
11. Miller, M., & Modigliani, F. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. The American Economic Review, 48(3), 261-297.
12. Stiglitz, J., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. The American Economic Review, 71(3), 393-410.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.